



## ILMIY ELEKTRON JURNAL

### RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOT TAYYORLASHNINIG AVTOMATLASHTIRISH TIZIMINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Abrorbek Kozimjonov**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Buxgalteriya hisobi” kafedasi dotsenti

[a.kozimjonov@tsue.uz](mailto:a.kozimjonov@tsue.uz)

#### *Annotation*

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobot tayyorlashnining avtomatlashtirish tizimining mazmun-mohiyati va konseptual asosi yoritilib berilgan. Mavzu doirasida xorijiy adabiyotlar va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari o'rGANilib, muallifning tomonidan moliyaviy hisobot tayyorlashnining avtomatlashtirish tizimini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

#### *Аннотация*

В данной статье всесторонне раскрыты сущность и концептуальные основы системы автоматизации подготовки финансовой отчетности в условиях цифровой экономики. В рамках исследования были проанализированы зарубежная литература и научные работы отечественных экономистов, а также разработаны авторские предложения и рекомендации по совершенствованию системы автоматизации подготовки финансовой отчетности.

#### *Annotation*

In this article, the essence and conceptual foundations of the automation system for the preparation of financial statements in the context of the digital economy are thoroughly examined. Within the scope of the study, foreign literature and the scientific research of local economists have been analyzed, and the author has developed proposals and recommendations aimed at improving the automation system for the preparation of financial statements.

#### *Kalit so'zlar*

raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirilgan tizim, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobot elementlari, pul mablag'lari.

#### *Ключевые слова*

*цифровая экономика, автоматизированная система, финансовая отчетность, элементы финансовой отчетности, деньги.*

### **Keywords**

*digital economy, automated system, financial reporting, elements of financial reporting, cash.*

### **Kirish**

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqr kirib borayotgan bir sharoitda, moliyaviy axborotlarning aniqligi, tezligi va shaffofligi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Moliyaviy hisobot tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va strategik qarirlarni tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyotda ma'lumotlar oqimi hajmining keskin oshishi va real vaqt rejimida axborot almashinushi zarurati moliyaviy hisobot tizimining avtomatlashtirilishini nafaqat afzallik, balki zaruratga aylantirmoqda. Shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq to'liq va ishonchli hisobot tayyorlash, investorlar, kreditorlar va davlat nazorat organlari uchun ahamiyatli axborot taqdim etish raqamli tizimlar orqali yanada samarali amalga oshiriladi. Shu sababli, moliyaviy hisobot tayyorlashning avtomatlashtirish tizimini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni, xususan, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va blockchain asosidagi yechimlarni joriy etish orqali, nafaqat hisobot sifatini oshirish, balki umumiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini jadallashtirish uchun ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobot tayyorlashninig avtomatlashtirish tizimini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.06.2021 yildagi 373-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi va 2020 yil 24 fevraldagagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga darajada xizmat qiladi[1,2,3].

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish tizimini shakllantirish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi. Bunda metodologik yondashuvlar tubdan o'zgarib, an'anaviy buxgalteriya hisobining o'rnnini raqamli buxgalteriya tizimlari egallamoqda. Raqamli buxgalteriya hisobini tashkil etish amaliyoti moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida qayd etish, tahlil qilish va hisobot shakllarini avtomatik tarzda shakllantirish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish amaliyotini tashkil etishda xalqaro moliyaviy hisobot

standartlari (MHXS)ning qaysi turlariga asoslanish zarurligi borasida iqtisodchi-mutaxassislar o‘rtasida turli fikrlar mavjud bo‘lib, bu esa metodologik yondashuvlarning moslashuvchanligini taqozo etadi.

R.Gayullaevning fikricha, blokcheyn texnologiyasini buxgalteriya hisobida foydalanish juda katta salohiyatga ega bo‘lib, u muayyan qoidalarga muvofiq chiziqli “bloklar” zanjiri hisoblanadi. Bu markazlashtirilmagan boshqaruvda yagona ma’lumotlar bazasi bo‘lib, u ko’plab kompyuterlarga taqsimlanadi. Blokcheyn ko’pincha “tarqatilgan ma’lumotlar bazasi” deb ham nomланади [4].

Odintsovaning fikricha, Amerika diplomli buxgalterlar instituti (US GAAP) buxgalterlari uchun tushuntirishlar beradi hamda kriptovalyuta nomoddiy aktiv ekanligini aniqladi. Shunga ko’ra, raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi rivojlanishining hozirgi bosqichida fan sohasi va uslubiy jihatdan kengaytirish, mantiqiy buxgalteriya bazasi, tizimning moslashuvchanligi va boshqaruvning axborot ehtiyojlariga moslashadirilishi zarur [5].

U.Shirinov “Buxgalteriya hisobini avtomatlashirish buxgalterlar ishini va ma’lumotni qo’lda qayta ishslash bilan solishtirganda ancha osonlashtiradi. Buxgalteriya hisobini avtomatlashirish boshlang’ich hujjatlarni avtomatik tarzda rekvizitlarni to’ldirish, ko’p hajmli ma’lumotlarni qayta ishslash, ma’lumotlarni turli ko’rinishlarda foydalanuvchilarga taqdim etish imkoniyatlarining mavjudligi, ortiqcha qog’oz sarfi oldi olinadi, rahbariyat va quyi bo’g’inlar, tashkiliy bo’linmalar o‘rtasida tezkor ma’lumot almashinushi, arifmetik xatolarni bartaraf etish, nazorat qiluvchi organlar va banklar bilan onlayn aloqa, qonun hujjatlaridagi o’zgarishlarga tezda javob berish qobiliyatlarining mavjudligi bilan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratadi” deb fikr yuritadi [6].

X.Ergashev “Raqamli buxgalteriya hisobi raqamli usullar va vositalar yordamida moliyaviy ma’lumotlarni uzatuvchi raqamlashtirilgan buxgalteriya jarayonidir. Buxgalteriya hisobidagi raqamli imkoniyatlar har yili tan olinib, ommalashib bormoqda va integratsiyalashmoqda” deb fikrlaydi [7].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot ishini tashkil qilish va bajarish jarayonida buxgalteriya hisobi usullari asosida ekpertlar baxosi, qiyosiy tahlil, kontent va invent tahlil, tizimli va omilli tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024 yil 8 oktyabrdagi 181-sun buyrug‘i 1-ilovasi bo‘lgan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida”gi NIZOMga muvofiq moliyaviy hisobotni MHXSga asosan tayyorlaydigan tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-sun “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3400, 2022 yil 9 dekabr) bilan tasdiqlangan MHXSlar va unga tushuntirishlar matnlari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlaydi va BHMS bo‘yicha moliyaviy hisobotni taqdim etmaydi. Moliyaviy hisobotni MHXSga muvofiq tayyorlaydigan tashkilotlar mazkur Nizom bilan taqdim qilinishi belgilangan moliyaviy hisobotlardan tashqari

e'lon qiladigan moliyaviy hisobotlar shakllarini, ularni taqdim etish tartibi va usullarini hisob siyosati bilan belgilashi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Moliyaviy hisobot tuzish bilan bog'liq bo'lgan MHXS asosiy standartlar quyidagilar

1. 1-son BHXS (Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti) «Moliyaviy hisobotni taqdim etish»
2. 7-son BHXS «Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot»
3. 27-son BHXS «Alovida moliyaviy hisobot»
4. 34-son BHXS «Oraliq moliyaviy hisobot»
5. 1-son MHXS «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash»
6. 10-son MHXS «Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot

1-son "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli BHXS talabiga ko'ra, korxonadagi aktivlarning xarkateri, likvidliligi va funksiyasi, majburiyatlarning summasi, xarkateri va muddatlari bo'yicha, korxonaning daromadlari, xarajatlari, foyda yozi zararlari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi moliyaviy hisobot shakllarida taqdim etishi lozim;

1. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot
2. Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar
3. Pul mablag'lari xarakati to'g'risidagi hisobot
4. Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot

Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish natijasida buxgalteriya hisobini tashkil etishning quyidagi usularidan foydalanish mumkin. 1uz, 1c, uzasbo, estat kabi dasturiy ta'minotlarni ma'lumotlar bazasiga ulash orqali faoliyatni yuritish, bulutli texnologiyalaridan foydalanish Google drive(disk), yandex disk, Onedrive, dropbox texnologiyalaridan foydalanish, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishda mhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobot tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi miqyosida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, yirik korxonalarning 68 foizi moliyaviy hisobot tayyorlashda qisman avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanmoqda, 24 foizi esa to'liq avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etgan. Ayni paytda kichik va o'rta biznes subyektlarining 52 foizi hanuzgacha an'anaviy usullar asosida qo'lda hisob yuritmoqda. Bu holat iqtisodiy samaradorlik va axborot sifatining korxona miqyosida farqlanishiga olib kelmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, moliyaviy hisobotni avtomatlashtirish hisobot tayyorlash jarayonida xatoliklarni kamaytirish, muddatlarni qisqartirish va operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkonini bergen. Jumladan, "O'zmetkombinat" AJ, "UzAuto Motors" AJ va "Artel Electronics" kompaniyalarida o'tkazilgan empirik tahlillar asosida avtomatlashtirilgan tizimlar joriy qilingandan so'ng hisobot tayyorlash uchun sarflanadigan vaqt o'rtacha 35 foizga qisqargani, xatoliklar soni 45

foizga kamaygani va moliyaviy hisobot tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlar 20 foizga qisqargani kuzatildi.

Quyidagi jadvalda avtomatlashirishdan oldin va keyin kuzatilgan asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan:

### 1-jadval

#### Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini avtomatlashirishdan oldin va keyin kuzatilgan asosiy ko‘rsatkichlar tahlili

Ko‘rsatkichlar	Avtomatlashtirishdan oldin	Avtomatlashtirishdan so‘ng	O‘zgarish (%)
Hisobot tayyorlash vaqtি (kun)	20	13	-35%
Xatoliklar soni (yilda)	100	55	-45%
Moliyaviy hisobot xarajati (mln so‘m)	300	240	-20%

Ushbu natijalar asosida moliyaviy hisobot avtomatlashirilganidan so‘ng rahbariyat moliyaviy holatni tezroq va aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo‘lgani, strategik qarorlarni qabul qilish tezligi va sifati oshgani ta’kidlanadi. Avtomatlashirilgan tizimlar real vaqt rejimida axborot taqdim etish imkonini bergani sababli, korxonalar ichki va tashqi manfaatdor tomonlar oldida shaffoflik darajasini sezilarli darajada oshira olgan.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashirilgan tizimlar joriy etilishi natijasida moliyaviy axborot oqimi tezlashib, boshqaruv jarayonlarida vaqt va resurslar tejalgan. Bu esa nafaqat operatsion samaradorlikni oshirgan, balki korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy xulosalardan biri shuki, moliyaviy hisobot tayyorlash tizimini avtomatlashirish korxona ichki boshqaruv tizimining transformatsiyasiga, xususan, tezkorlik, aniqlik va xarajatlarning optimallashuviga bevosita ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda ERP va CRM tizimlari bilan integratsiyalashgan platformalarning joriy etilishi, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish algoritmlaridan foydalanish, axborot xavfsizligini ta’minlash va xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish muhim omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, moliyaviy hisobotlarning blokcheyn asosida shakllantirilishi va avtomatik audit tizimlarining rivojlanishi kelajakda avtomatlashirish samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Tahlil va natijalar umumiy xulosalar chiqarishda, moliyaviy hisobot jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashirish strategiyalarini shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

## Xulosa va takliflar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobot tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish korxonalar moliyaviy boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishda va raqobatbardoshlik darajasini mustahkamlashda muhim rol o'ynashi tahlil natijalari orqali aniqlandi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, moliyaviy hisobotni avtomatlashtirish hisobot tayyorlash vaqtini o'rtacha 35 foizga qisqartiradi, inson omiliga bog'liq xatoliklar sonini 40-45 foizga kamaytiradi va moliyaviy xarajatlarni 20 foiz atrofida optimallashtirish imkonini beradi.

Avtomatlashtirilgan moliyaviy hisobot tizimlari nafaqat operativlik va aniqlikni ta'minlaydi, balki real vaqt rejimida raqamli ma'lumotlarga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatini ham yaratadi. Bunda bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt va robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA) kabi innovatsion yechimlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ERP va CRM tizimlari bilan to'liq integratsiyalashgan moliyaviy boshqaruv tizimlari axborot oqimini yaxshilash va biznes jarayonlarining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Moliyaviy hisobot tayyorlash jarayonlariga sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish algoritmlarini keng joriy etish orqali hisobot aniqligi va tahliliy imkoniyatlarni oshirish;
- ERP va CRM kabi tizimlar bilan moliyaviy hisob tizimlarining integratsiyasini ta'minlash orqali operatsion ma'lumotlarni yagona axborot platformasida boshqarish;
- Moliyaviy hisobotni real vaqt rejimida shakllantirish imkonini beruvchi bulutli texnologiyalarni joriy etish va rivojlanish;
- Moliyaviy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash uchun blokcheyn texnologiyalari asosida ma'lumotlar bazalarini yaratish;
- Korxonalar moliyaviy xodimlari uchun raqamli ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan doimiy o'quv va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;
- Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish bo'yicha subsidiyalar va texnik yordam dasturlarini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy hisobot tayyorlashning avtomatlashtirilishi raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona faoliyatini zamonaviylashtirishning zaruriy sharti sifatida qaralishi lozim. Mazkur yo'nalishda tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida moliyaviy boshqaruv sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.06.2021 yildagi 373-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (<https://lex.uz/docs/6312360>).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).
4. Гайбуллаев Р.М.,Бобомуродова С.З. (2022) Бухгалтерия хисобида рақамли ахборот технологияларини қўллаш истиқболлари. JOURNAL OF ECONOMICS, FINANCE AND INNOVATION ISSN:2181-3299 Volume-II Issue 1.
5. Одинцова Т.М. (2021) Бухгалтерский учет: развитие и трансформация в контексте вызовов современности // Международный бухгалтерский учет. No 10. С. 1162-1187.
6. Shirinov U.A. , Hamidov D. Raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi. "Экономика и социум" №6(109)-2 2023, 426-429-с. [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru).
7. Ergashev X.X., Hamidov D. Raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya hisobi. "Экономика и социум" №6(109)-2 2023, 99-102-с. [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru).